

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHNING YANGI ISLOHOTLARI**

Toshkent viloyat juridik texnikumi klinika rahbari

Раззоков Хусан Мирзамаишрапович

Annotatsiya: Maqolada korrupsiyaga qarshi kurash va korrupsiyaga qarshi kurashning yangi islohotlari to'g'risida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, kommunal, statistika, bojxona, agentligi.

Kirish: Hozirgi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida 2022-yil 12-yanvarda qabul qilingan 81-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ko'rsatish mumkin. Mazkur qarorda mamlakatimizdagi davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash mexanizmlarini joriy qilishga doir chora-tadbirlar belgilab qo'yildi.

Asosiy qism:

Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash va ularni ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini bir qator davlat tashkilotlarida eksperiment tariqasida joriy etish belgilab qo'yildi. Jumladan, 2022-yil 1-fevraldan boshlab reyting baholash tizimi o'z faoliyatida korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etayotgan davlat organlari va tashkilotlarida, xususan, Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Transport vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Qurilish vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi, Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, Toshkent shahri hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi, Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani hokimligi, Toshkent viloyati Bo'ka tumani hokimligida joriy etilib. 2022-yil 1-iyuldan boshlab ushbu tizim barcha davlat organlari va tashkilotlarida joriy etilishi belgilab qo'yildi.

Korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ush reyting baholash alohida indikatorlardan tashkil topgan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

birinchi yo‘nalish – davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi;

ikkinchi yo‘nalish – korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchi yo‘nalish – davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to‘rtinchi yo‘nalish – xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchi yo‘nalish – korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarining samaradorligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalarining xolisligini ta‘minlash maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan belgilanadigan tartib asosida har yili 9 kishidan iborat bo‘lgan ekspertlar guruhi shakllantiriladi. Mazkur ekspertlar guruhi har yilning 15-fevraliga qadar dastlabki reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Agentlikka xulosa topshiradi. Agentlik ekspertlar guruhi tomonidan taqdim etilgan xulosaga asosan tegishli tashkilotlarning taklif va e‘tirozlarini inobatga olgan holda, yakuniy baholash ishlarini amalga oshiradi. Baholash natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilgan davlat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqishi va uni Agentlik bilan kelishilgan holda tasdiqlashi, ketma-ket ikki yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilgan davlat tashkilotlari rahbarlariga belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik choralari qo‘llash masalasi ko‘rib chiqilishi belgilandi.

Ushbu qarorga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarida bu sohadagi ishlarning qay darajada samarali yo‘lga qo‘yilganligini bilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi // <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>

2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun <https://lex.uz/docs/3088008>
3. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5729-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4355387>
4. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4875784>
5. "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5495529>
6. Mustafayev, U. U. (2021). TA'LIM BOZORI VA INTELLEKTUAL SOTSIAL "TOVAR" SIFATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 218-226.